
“Yashil makon” umummilliylar loyihasining navbatdagi mavsumiga start berildi

Qo’shtepa tumanida “Yashil makon” umummilliylar loyihasining navbatdagi mavsumiga start berildi. Tuman hokimligi, tuman Obodonlashtirish bo’limi, Mahalla uyushmasi, Ekologiya hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda “Farzandim kelajagi uchun bir tup daraxt”, “Mening bog’im” kabi ommaviy tadbirlarni tashkil etishga kirishildi. Tadbirlar davomida har bir mahallada yo’l chetlari va bo’sh turgan maydonlarda ko’kalamzor maskanlar tashkil qilish ko’zda tutilgan.

Shu munosabat bilan “Garmdon” mahallasi hududidagi katta yo’l yoqasiga manzarali ko’chat ekish tadbiri tashkil etildi. Tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev ishtirok etdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar tomonidan ming tupdan ortiq zarang, qayrag’och, dub va terak ko’chatlari ekildi.













2024-11-12 16:59:24